

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

7-son (5-jild)  
**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 7 (5) – 2025*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

## **ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|                                                                                                                                                                                                             |       |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Норов Шухрат Сувонович</i><br>МОЛОДЁЖНЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ В ИНТЕГРАЦИИ СРЕДСТВ МАССОВОЙ<br>ИНФОРМАЦИИ НА ПРИМЕРЕ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА .....                                                                   | 9-14  |
| <i>Nazirxo'jayev Muhammadalixo'ja Qosimxo'jayevich</i><br>1945-1950-YILLARDA ANDIJON VA FARG'ONA VILOYATLARIDA HARBIY<br>ASIRLARINING QURILISH VA XALQ XO'JALIGI ISHLARIGA JALB ETILISHI<br>TARIXIDAN ..... | 15-22 |
| <i>Xujaniyazov Uktam Eshbaevich</i><br>QORAQALPOG'ISTON DAVRIY MATBUOTINING MUSTAQILLIK<br>YILLARIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (1991-2018 ).....                                                         | 23-27 |
| <i>Toirjonova Ruxsora Shaxobiddinovna</i><br>SOVET DAVRIDA VAQF MULKLARI TAQDIRI VA DINIY MUASSASALARGA<br>BO'LGAN MUNOSABAT .....                                                                          | 28-31 |
| <i>Aytmuratova Janilsin, Quvvatova Charos</i><br>THE ROLE OF THE JADIDS IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL<br>PUBLIC EDUCATION, LITERATURE, AND ART .....                                                       | 32-36 |
| <i>Rahimova Zeboxon O'ktam qizi</i><br>XORAZM HUDUDIDAGI TARIXIY QAL'ALAR REKONSTRUKSIYASIDA<br>3D MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....                                         | 37-42 |
| <i>Aytmuratov Jalgas, Doshniyazov Raxat</i><br>QORAQALPOG'ISTON SAN'ATINING TARAQQIYOTIDA TASVIRIY<br>SAN'ATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MANBALARI .....                                                | 43-49 |

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

|                                                                                                                                                                                            |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Raximbayev Akmal Azatboyevich</i><br>O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA SANOATNI RIVOJLANISHI<br>VA AGLOMERATSIYALARNI SHAKLLANISH JARAYONLARI .....                                               | 50-57 |
| <i>Amonov Mehridin Oromiddinovich</i><br>TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDAGI RAHBARLIK USHLUBLARI .....                                                                                | 58-63 |
| <i>Shukurov Ikrom Abdurashitovich</i><br>TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHIDA TURISTIK FIRMA VA TASHKILOTLAR<br>TOMONIDAN SOTILGAN SAYYOHLIK YO'LLANMALARINING TA'SIRINI<br>TAHLIL ETISH ..... | 64-69 |

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

|                                                                                                                                                                                       |       |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| <i>Karimbayeva Salomatxon, Mirzaxmedov Abdurashid</i><br>IJTIMOIY TOLERANTLIKKKA TA'RIF .....                                                                                         | 70-74 |
| <i>Qayumova Aziza Toshmuradovna</i><br>IBN XALDUN IQLIMLAR NAZARIYASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI.....                                                                             | 75-78 |
| <i>Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li</i><br>SIMMETRIYA VA ASIMMETRIYA BIRLIGI KONTEKSTIDA "O'ZBEKISTON – 2030"<br>STRATEGIYASIDAGI G'OYALARNING IJTIMOIIY FALSAFIY TAHLILI ..... | 79-85 |

|                                                                                                                                                                  |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Kubatov Shahobjon</i><br>2016-2024-YILLARDA O'ZBEK JAMIYATI TAFAKKURIDA DAVLATNING IJTIMOIIY<br>FUNKSIYALARI TAHLILI .....                                    | 86-96   |
| <i>Abduraxmonov Is'haq, Jurayeva Rayxona</i><br>YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK<br>MUAMMOLARI .....                                | 97-100  |
| <i>Raximova Yulduz Dilmurod qizi</i><br>ISLOM FALSAFASIDA INSON TALQINI .....                                                                                    | 101-104 |
| <i>Achilov Firdavs Nasritdin o'g'li</i><br>YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI MA'NAVIIY QIYOFASINI YUKSALTIRISHDA<br>MAHMUDXO'JA BEHBUDIIY TA'LIMOTINING AHAMIYATI ..... | 105-108 |
| <i>Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich</i><br>DEMOGRAFIK JARAYONLAR, MIGRATSIYA VA URBANIZATSIYANING<br>MADANIYATLARARO DIALOGGA TA'SIRI.....                       | 109-113 |
| <i>Хамдамов Бехзод Хабибович</i><br>ФИЛОСОФИЯ ЛИЧНОСТИ И СУДЬБЫ В «БОБУРНАМЕ» .....                                                                              | 114-118 |

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

|                                                                                                                                                    |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Mamadaliyeva Naibaxon, Mamadaliyeva Odinaxon</i><br>DAVLAT TILIDA SIFAT VA SERTIFIKATLASH ATAMALARI<br>IZOHLI LUG'ATINI YARATISH ZARURATI ..... | 119-125 |
| <i>Алиева Эльвина, Расулова Дилбар</i><br>ИЗУЧЕНИЕ КОНВЕРГЕНЦИИ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ НА МАТЕРИАЛЕ<br>ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОЗАИЧЕСКОГО ТЕКСТА .....        | 126-134 |
| <i>Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</i><br>LEKSIKOGRAFIYADA DARAJALANISH QONUNIYATINING ILMIY-AMALIY<br>AHAMIYATI .....                              | 135-144 |
| <i>Qodirova Barno Ibragimovna</i><br>O'ZBEK FILOLOGIK TERMINOLOGIYASIDA -IZM QO'SHIMCHASINING<br>ETIMOLOGIK VA MORFOLOGIK TAHLILI .....            | 145-149 |
| <i>Tursinbaev Ilham Po'latbay o'g'li</i><br>BOLALAR ADABIYOTIDA POEMANING JANRIY XUSUSIYATLARI .....                                               | 150-154 |
| <i>Abdurahmonova Farangiz, Xudoymurodova Xurriyat</i><br>"SAG'RI TERI TILSIMI" FALSAFIY ROMANIDA BOSH QAHRAMON TAQDIRINING<br>BADIY TALQINI .....  | 155-158 |

#### **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

|                                                                                                                                                                                     |         |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Yunusov Xaydarali Muratovich</i><br>YEVROPA ITTIFOQI HUQUQINING ASOSIIY PRINSIPLARI .....                                                                                        | 159-168 |
| <i>Zokirov Sherzod</i><br>O'ZBEK XONLIKLARIDA INSON HUQUQLARINING TA'MINLANISHI:<br>FUQAROLAR MUHOJIRATLARI BILAN ISHLASH VA U BO'YICHA NAZORATNI<br>AMALGA OSHIRISH MISOLIDA ..... | 169-176 |
| <i>Жураев Шерзод Юлдашевич</i><br>ПРИМЕНЕНИЯ ПРИНЦИПА ЗАЩИТЫ ДОВЕРИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА .....                                                                                       | 177-185 |

|                                                                                                                                                                                                                                       |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i><br>INSON HUQUQLARIDAN CHEKINISHNI XALQARO STANDARTLARDA<br>TARTIBGA SOLINISHI .....                                                                                                          | 186-192 |
| <i>Мадаминова Дилафруз, Авазбекова Диёрахон</i><br>СОПРИКОСНОВЕНИЕ ИСЛАМСКИХ И МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМ В ВОПРОСАХ<br>РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ И ОПЕКИ НАД РЕБЁНКОМ .....                                                                          | 193-202 |
| <i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i><br>INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI .....                                                                                                                              | 203-209 |
| <i>Мукумов Бобур Мелибой угли</i><br>ОЦЕНКА РЕГУЛИРУЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЭКСПЕРТИЗА<br>В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ<br>ГОСУДАРСТВА, БИЗНЕСА И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА .....                    | 210-214 |
| <i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i><br>FUNDAMENTAL DIFFERENCES AND ANALYSIS OF THE ORGANIZING PRINCIPLES<br>OF ISLAMIC FINANCE AND TRADITIONAL FINANCE.<br>IN THE EXAMPLE OF ISLAMIC BANKS AND TRADITIONAL BANKS .....           | 215-222 |
| <i>Yarlakabov Sherali</i><br>ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA KADRLAR BILAN ISHLASH HUQUQIY<br>ASOSLARINING NAZARIY JIHATLARI .....                                                                                                           | 223-228 |
| <i>Боймурзаев Жасурбек Бахтиярович</i><br>ЗНАЧЕНИЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОПЕРАТИВНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ОРГАНОВ<br>ВНУТРЕННИХ ДЕЛ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В БОРЬБЕ С НАРКОТИКАМИ И<br>НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ .....                           | 229-234 |
| <i>Xadjiyev Azizbek Kadambayevich</i><br>“IJTIMOIY ADOLAT” TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBI<br>VA XALQARO QONUNCHILIK Hujjatlarida tutgan o'rni .....                                                                                  | 235-240 |
| <i>Abulxayrov Rustamxon Ibodullayevich</i><br>PORTLASHDAN KEYIN KO'ZDAN KECHIRISH DAVOMIDA OLINGAN<br>ASHYOVIY DALILLAR BO'YICHA TAYINLANADIGAN PORTLASH-TEKNIK<br>VA PORTLOVCHI MODDALAR EKSPERTIZALARI HAL ETADIGAN MASALALAR ..... | 241-249 |
| <b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>                                                                                                                                                                                                  |         |
| <i>Jumaniyozova Muhaiyo Tojiyevna</i><br>IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISH PEDAGOGLARI KREATIV KOMPETENTLIGINI<br>RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....                                                                           | 250-256 |
| <i>Menglikulov Xayrulla Aliqulovich</i><br>OLIY O'QUV YURTIDA JISMONIY TARBIYANING TASHKILY SHAKLLARI .....                                                                                                                           | 257-263 |
| <i>Jurayeva Balxiya Farxod qizi</i><br>ROBOTOTEXNIKA DARSLARIDA STEAM – TA'LIM YONDASHUVINING AHAMIYATI ....                                                                                                                          | 264-270 |
| <i>Nasritdinova Madina Nurullayevna</i><br>ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING<br>BADIIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR TAJRIBA-SINOV<br>ISHLARI NATIJALARI TAHLILI VA SAMARADORLIK DARAJASI .....   | 271-275 |
| <i>Charshanbiyev Namaz Maxmatmurodovich</i><br>KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI RAQAMLI TA'LIM<br>PLATFORMALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI .....                                                                    | 276-281 |



**Received:** 16 June 2025

**Accepted:** 5 July 2025

**Published:** 15 July 2025

*Article / Original Paper*

## **SOURCES OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF FINE ARTS IN THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK ART**

**Aytmuratov Jalgas**

Professor of "Archaeology" at KSU

**Doshniyazov Raxat Karlibaevich**

Stage teacher of the Department of "Archaeology" at KSU

E-mail: [raxatdoshniyazov72@gmail.com](mailto:raxatdoshniyazov72@gmail.com)

**Abstract.** This article discusses Vladimir Karakalpakov, who made a significant contribution to the formation of fine arts in Karakalpakstan. Emphasis is placed on historical events related to the artist's homeland and his childhood years. The care of Savichev Ivan Savelyevich for the orphan plays a central role, whose talent in the orphanage laid the foundation for the development of Karakalpak fine art. The artist's renowned creative works at the Academy of Arts are mentioned, as well as his feelings of longing for his homeland, experienced with such talent.

The article presents important scientific information related to the history of Russian fine art, based on historical documents, archival materials, and written sources. It describes the artist's life path, his achievements, awards with medals at the Academy of Arts, and his experiences of longing for his homeland. In addition, relying on historical documents, archival materials, and classical literary works, the article identifies promising areas for future research in fine arts.

**Keywords:** Karakalpak fine art, Vladimir Karakalpakov, Imperial Academy of Arts, theater decoration, P. Mochalov painting, Russian fine art.

## **QORAQALPOG'ISTON SAN'ATINING TARAQQIYOTIDA TASVIRIY SAN'ATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MANBALARI**

**Aytmuratov Jalgas**

QDU "Arxeologiya" kafedrasi professori v.b.

**Doshniyazov Raxat Qarlibaevich**

QDU "Arxeologiya" kafedrasi stajyor o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston tasviriy san'atining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan Vladimir Karakalpakov haqida so'z yuritiladi. Rassomning tug'ilgan yurti hamda bolalik yillaridagi tarixiy voqealarga e'tibor qaratilgan. Savichev Ivan Savelevichning yetim bolaga g'amxo'rligi asosiy o'rin egallaydi, uning bolalar uyidagi iste'dodi qoraqalpoq tasviriy san'atining shakllanishiga asos soladi. Rassomning Rassomlik akademiyasidagi mashhur ijodiy kartinalari, rassomning shunday iste'dodi bilan vatan sog'inchini boshidan kechirgan tuyg'ulari haqida so'z yuritildi.

Maqolada tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va yozma manbalarga tayanib, rus tasviriy san'ati tarixiga oid muhim ilmiy ma'lumotlar ko'rsatilgan. Rassomning hayot yo'li, yutuqlari, rassomlik akademiyasidagi medallar bilan taqdirlanishi, vatan sog'inchini boshdan kechirganligi haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda, maqolada tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va mumtoz adabiy asarlarga tayanib, tasviriy san'atning kelajakda o'rganilishi lozim bo'lgan sohalarini ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Qoraqalpoq tasviriy san'ati, Vladimir Karakalpakov, imperatorlik tasviriy san'at akademiyasi, teatr dekoratsiyasi, P. Mochalov surati, rus tasviriy san'ati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I7Y2025N07>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 15-apreldagi O'zbekiston madaniyat va san'at sohasi xodimlariga tabrigida "Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan bitiruvchilar hamda mustaqil ijod bilan shug'ullanayotgan rassomlar faoliyatiga ko'maklashish, xususan ijodiy ustaxonalar bilan ta'minlash, ustoz-shogird an'anasini kuchaytirish masalasida ham qator ishlarni amalga oshirish rejalashtirilganini" ta'kidlagan edi. Qoraqalpog'iston tasviriy san'atining shakllanish tarixi bo'yicha ko'plab tarixiy manbalarni uchratish mumkin. XIX asrdagi mashhur rus rassomlaridan biri bo'lgan Vladimir (Gavril) Karakalpakov haqida 1961-yil 12-iyulda "Sovetskaya Karakalpakskaya" gazetasida birinchi qoraqalpoq rassomi degan maqola bosilib, unda rassom Karakalpakovning qoraqalpoq ekanligi va u ota-onadan yetim qolganligi sababli Qoraqalpoqdan Rossiyaga olib borilganligi, dastlab Vladimir degan ism qo'yilgan, keyin esa Gavril ismi qo'yilganligi, 1913-yilning 1-sentyabrida imperiyaning Badiiy Akademiyasiga kirgani haqida yozadi. Shu bilan birga, bu maqolada Karakalpakovning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Yozuvchi O. Bekbauliyevning "Vladimir Karakalpakov" romanida uning hayoti, Karakalpakov familiyasining berilishi va qoraqalpoq san'ati rivojiga qo'shgan hissasi bayon etilgan:

"Qoraqalpoqlar, Ulug' tog', Qoratog' yonbag'irlariga yoyilgan 20 ming uylik qozoqlar va 12 ming uylik qoraqalpoqlar shu yerdan Sirning Orolga quyar yeriga joylashdi, lekin qozoqlarning kichik juz xoni Abulxayr yaylovga yer tor bo'ldi deb o'yladimmi yoki Buxoro Qo'qon xonligi chegarasida qoraqalpoqlarning o'tirishini xohlamay bu yerdagi 12 ming uyli qoraqalpoqlarni ikkiga bo'lib, Ulkyak daryosi bo'yiga Abulxayr Sulton boshchiligida ko'ch tortdi. Ammo Sirning Orolga quyiladigan joyida "to'rtqora" va "shekti"larni qoldirib ketdi. Shu qishloqdagi o'rtahol xo'jaliklardan bo'lgan Alpisboy tirishish kasalligidan vafot etadi, ortida xotini Qirmizi va 6 yoshli bolasi bilan qoladi. Abulxayr boshchiligida ko'chgan 6 ming qoraqalpoq xo'jaliklari Ulkyakdan Besqal'aga ko'chgandan so'ng Sirdaryoning Orolga quyiladigan joyidagi qoraqalpoqlar ham qadimgi ota-bobolari makon tutgan yerga ko'chishga bel bog'ladi. Ammo yetim-yesir bolalar o'lib qolishiga ko'zi yetib, boyagi Ulug' tog' etagidagi kabi bu yerda qoladi. Qirmizi ham ko'chgan yurtda qolganlarning biri. Bolasi yosh, o'zi kasal, o'zi kundoshlikka, bolasi-ishga yaramasa kimga keragi bor. Barcha og'irlik yuragiga tushgan Qirmizi bir kuni o'tovning oldida holdan ketib joni uzildi. Ammo endigina 7 yoshga to'lgan bolasi jim-jit qolgan onasini quchoqlab zor yig'lab qoldi. O'sha vaqtda buning guvohi bo'lgan Moskvadan kelgan harbiy taftish komissiyasining boshlig'i Savichev Ivan Savelevich bolani yupatib, uni ovqatlantirib keyin uxlatdi, onasini esa shu tomonga ko'mdi.

So'ng bolani uyg'otib o'zi bilan birga olib ketdi. Buning ham sababi bor edi. Harbiy reviziyaning boshlig'i bo'lgan Savichev Ivan Savelevich Moskvadan Sirning Orolga quyar qismiga kelmasdan oldin Savichev Ivan Savelevichning eski do'sti Gavril Mixaylovich, Savichev Ivan Savelevichning qirga, Orol dengizi tomonga borishini gazetadan o'qib, davlat departamentining oldiga kelgani shu edi. Uchrashuv vaqtida o'z xotini bo'lgan Afrosina Petrovna bilan bolali bo'la olmaganini aytadi va Savichev Ivan Savelevichdan boradigan tomondan farzand olib berishini iltimos qiladi.[1;8] Bu Gavrilning Savichev Ivan Savelevichga qilgan iltimosi edi. Savichev Ivan Savelevich Orol dengizi tomonidagi ishini qilib o'z yurtiga

qaytadi va bolani o'z uyiga olib boradi. Bu dashtda qolgan qarovsiz bolaning hayotda o'z o'rnini topishiga sabab bo'ladi.

Savichev Ivan Savelevichning xotini Praskoviya Lukyanovna cholini sog'ingani uchun uni yaxshi kutib oladi va bolani ikki uch kun uyida saqlaydi. Savichev Ivan Savelevich bolani Gavrilga bergandan ko'ra "Tarbiya uyi"ga berishni ma'qul ko'radi, Savichev Ivan Savelevichning xotini ham buni ma'qulladi. Gavril Mixaylovichga bir bahona aytamiz deb Solyankadagi "Tarbiya uyi"ga qarab ketdi. Yo'lda Ivan Savelevich "Tarbiya uyi"ning qabul tartibi to'g'risida o'ylab kelyapti. Bolani xristian diniga kiritmaguncha va rus familiyasini bermaguncha bunday bolalarni qabul qilishmaydi. Familiya esa qo'ldan keladigan ish. Shuning uchun "Tarbiya uyi"da hozircha metrik kitobdan o'tkazib qo'yish ma'qul. Ammo qabul qilish, qabul qilmaslik haqida ko'rarmiz. Har qanday holatda ham yuqori darajali ofitserdan qabul qilish kerak-ku. Vladimir bo'lsa o'z millatining kelib chiqishini qachon bo'lsa ham topib olar, "Karakalpakov" deb yozdiramanda qo'yaman. Ivan Savilevich shularni o'ylar ekan, Solyankidagi "Tarbiya uyi"ga kelib qoldi. Savichev Ivan Savelevich Tarbiya uyining qabulxonasiga kirdi. Direktorning yordamchilari yuqori darajali ofitser Savichev Ivan Savelevichni yaxshi kutib oldi.

"Ismi nima? Otasining ismi nima? Ota-onasi kim? Direktorning qabulxonasidagi Ivan Savelevichga to'ldirish uchun taqdim etilgan kartochkasi shunday savollardan iborat edi.

Bolaning ismi- Vladimir, otasining ismi Karakalpak (o'lgan), tug'ilgan yili-1802-yil, Tug'ilgan joyi-Sirdaryo, "Besh qal'a" mozorining yonida, kalta ariq bo'yi. Vasiysi kim-Vaqtincha Savichev Ivan Savelevich, onasining ismi-?: -ota-onasi vafot etgan, Vasiysining doimiy manzili-Peterburg.

Vasiysining ish joyi, darajasi — Orenburg general-gubernatorining revizorlar guruhining boshlig'i, Gvardiya polkovnigi. Qabulxonaga qabul qilingan kuni -1808 yil 12-avgust" deb ko'rsatilgan.

Vladimir Karakalpakovning yoshlik vaqtlari haqida uning qoraqalpoq ekanligi va qoraqalpoqdan chiqqan birinchi rassom ekanligi ta'kidlab ko'rsatiladi. Ushbu materiallarni to'ldirish masalasida san'atshunoslik fanlari nomzodi Ag'inbayev Allamuratov tomonidan 1961-yil "Amudaryo" jurnalining 12-sonida Vladimir Karakalpakov haqida yangi ma'lumotlar maqolasi e'lon qilinadi.

Rassom Karakalpakovning hayoti va ijodiy mehnati bilan tanishish, dastlab sobiq ittifoq badiiy-san'at akademiyasi kutubxonasining "Юбилейный Справочник имперской Академий художеств (1764-1914) составилъ С.Н. Конлаков" (Sib,1914) nomli kitobning II tomini olib, "Rus rassomlarining ro'uxati" bo'limining 86-betidan "Художествов Владимир (он же Гаврил ) Киргизес, Креченный воспитаник А.К. Художествов С 1813 по 1823 г Получил 1822 год две серебр медалы" ya'ni Karakalpakov Vladimir N. Gavril deb ham atalgan cho'qingan qirg'iz 1813-yildan 1823-yilgacha Badiiy Akademiyaning tarbiyachisi, 1829-yili ikki kumush medal oldi degan yozuvni topdim. «Сборник материалов для историй сибиратовской Санк-Петербург академии Художество за сто лет эго существования, из данный под редакции Н.П. Петрова и с его примечавшими» degan 1864-1866-yillari bosilgan kitobdan V. Karakalpakovning qaysi yillari Akademiyada o'qigani va medallar olgani topildi. Kitobning 11-bo'limining 51-sahifasida: 29-sentyabr Sovetining (Akademiyaning soveti-A.A.) yig'ilishida quyidagilar bo'ldi:

O'tgan 1813-yil 1-sentyabrda ochilgan kursni bitirgan quyidagi ismi ko'rsatilgan bolalarni akademiyaning Ustaviga muvofiq, Akademiyaning tarbiyachilarining yoshiga

(kursga.A.A) olinsin: (qabul qilingan 54 bolaning ro'yxatida 47-bola Gavril Karakalpakov) O'sha kitobning 132-betida:

2 yoshdagi bolalarni uchinchi yoshga o'tkazishda ularni rassomlik sinflariga bo'lish kerak bo'lganligi sababli, 44 o'quvchining 18 bolasi rasm sinfiga belgilansin, xususan: (1819-yil 29-mart kungi Akademiya sovetining qarorida 18 bolaning ro'yxatida yettinchisi Vladimir Karakalpakov deyilgan. 1822-yili 23-avgustda sovetning qarori bo'yicha Vladimir Karakalpakov 1822-yili 29-aprelda olingan imtihon uchun 2 bolaning biri bo'lib, Ikkinchi darajali kumush medalini olgan. [2;132]

1822-yil 13-sentyabr kuni kengashning qarori bo'yicha 4 oylik yakuni bo'yicha 1822-yil 26-avgustda olingan imtihonlarda Birinchi darajali kumush medalga hech kim taqdim etilmay, ikkinchi darajali kumush medal olganlarning ro'yxatiga 3 o'quvchi yozildi. Ular to'rt xil yoshdagi o'quvchilari: I.Stepanov, V.Karakalpakov va N.Golavachevskiy.[3;168]

Vladimir Karakalpakov Peterburgdagi imperator rassomchilik akademiyasiga yuborilishi va u yerdagi yutuqlari haqida yozuvchi O'.Bekbauliyev ham o'z asarida bunday keltiradi: «Rassomchilik Akademiyasida birinchi darsni “Западноевропейское художественное искусство” degan kitobni o'rganishdan boshladi. Bu darsni olib borgan o'qituvchi Aleksey Yegorovich “G'arbiy Yevropa tasviriy san'ati”ni o'tmasdan oldin, tasviriy san'at va uning kelib chiqishi haqida tushuntirib o'tdi. Vladimir Karakalpakov o'quvchilar orasida tilga olinib, darslaridan ham, rasm chizishdan ham muvaffaqiyatga erishib ulgurdi. Uning “Peterburg atrofining tong otishi” deb nomlangan manzarasi hammaning e'tiborini tortdi. Vladimir darsdan va ustaxona ishlaridan bo'sh vaqtlarining hammasini bekor o'tkazmasdi. Rossiya rassomlik ustalarining ko'rgazmasida, ikkinchi kun rasm galereyasida, shuningdek V.A. Toropinning ustaxonasida, har qalay o'zining mutaxassisligiga foydasi tegadigan joyda vaqt o'tkazdi.

Bir kuni qalmoq qizi bo'lgan Sasha ismli qizga Ermitajni birga tomosha qilishni iltimos qiladi. Uchrashgan joyida uchrashganda Vladimir do'sti Sasha bilan Neva daryosining bo'yida turib o'zlarini Sirdaryo bo'yida turgandek his qildi. Albatta Neva daryosi Peterburgning go'zalligiga qo'shimcha baho bergani bilan Sirning suvidek sariq emas, ba'zida jo'shib tashqariga chiqqani bo'lmasa, to'lqinlari yuvosh, suvi ko'zning yoshiday tiniq degan bilan Sasha-biz tug'ilgan Sir bo'ylarining manzarasi bundan ham ajoyib deb Sasha va Vladimirning vatan sog'inchi yuziga urib turar edi. Albatta, ularda — vatanni, elni, ota-onani sog'inishning zaharli achchiq o'kinchi, qayg'ulari sezilib turar edi.

1823-yilning bahorida Rassomlik akademiyasining zalida konferensiya bo'lib o'tadi. Bu konferensiya odatdagidan boshqacha bo'lib o'tgan edi. Unda ta'lim vazirining uch inspektori, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirok etdi, yig'ilishni odatdagi prezident o'rinbosari ochdi va u o'z so'zida “Joriy o'quv yilining birinchi choragini muvaffaqiyatli tamomlaganlarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlashga bag'ishlangan yig'ilishni ochiq” deb e'lon qilib, ta'lim vaziri bilan akademiya prezidentining qo'shma buyrug'ini o'qib eshittirish uchun so'zni tasviriy san'at akademiyasi prezidenti A.N. Oleninga berdi. U o'z nutqida Maorif vaziri va hurmatli knyaz A. N. Golitsin nomidan akademiyaning tarbiyalanuvchilari va o'qituvchilari manziliga juda iliq so'zlar aytdi. Bu so'zlar Vladimirning nomidan ham yetib keldi. Hatto akademiya prezidenti Vladimirni kumush medalga tavsiya qilishda o'qituvchi va guruh rahbarining adashmaganini aytib maqtadi.

“Tarixiy rangtasvir” sinfidan Vladimir (Gavrilla) Karakalpakov!-dedi akademiya prezidenti alohida to‘xtalib — o‘quv yilining birinchi choragini yuqori baholar bilan tugatgani va akademiya hayotida faol qatnashgani uchun kumush medal bilan taqdirlanganligi”[4;66] aytiladi.

Bu ma’lumotlardan bilsak bo‘ladiki, rassomning yoshligidan iste’dodli bo‘lganligini, vatan sog‘inchini yozuvchi yuksak darajada ko‘rsata olgan.

V.Karakalpakovning akademiya dan haydali sh sabablari bu kitobda aytilmaydi. Uning rassom Pavel Fedodov va artist P.S. Mochalov bilan munosabatlari biroz vaqtgacha noma’lum bo‘lib kelgan bo‘lsa kerak.

Bularning hayoti va ijodini o‘rganuvchilar ko‘p vaqtgacha Karakalpakovni tilga olmaydi. 1898-yili Moskvada 26-27-aprelda P.S. Mochalov xotirasiga bag‘ishlab tashkil etilgan vstavkaning katalogi chiqarilgan. Albom V. Karakalpakov ishlagan P.S.Mochalovning portreti bilan ochiladi. 15-iyuldagi “Советская каракалпакия”da vitografiya V.Karakalpakov tomonidan ishlangan rasm (Moskva, 1897) ostiga Mochalov “Посебудим ненавист к Людям и раскашие” dramasida Meynal rovida, deb yozilgan. Mochalovning roli bo‘yicha aytgan so‘zlarining ikki qatori keltirilgan. Rassom haqida boshqa ma’lumot keltirilmagan. 1914-yilda S.Peterburgda V.G.Galikovning tahririda chiqqan V.G.Bilinskiyning asarlarida o‘sha rasm berilib, muallif ko‘rsatilmagan. Bu rasmni Yu.Sobolev 1935-yili chiqargan Mochalov haqida kitobida ham keltirib, Karakalpakov haqida hech qanday so‘z etmaydi. faqat 1953-yili SSSR fanlar akademiyasining san’at tarixi instituti chiqargan P.S. Mochalovning teatr haqida xatlari, she’rlari, pyesalari to‘plamida kitobni ochishdanoq Mochalovning o‘sha mashhur portreti ko‘zga tashlanadi. P.S. Mochalov Meynal rovida. Karakalpakovning chizgan rasmi degan, rasmda esa S.Paturiy, V.Karakalpakov degan oldindan yozilgan so‘zlar aniq o‘qiladi.[5;142]

Y.Dimitriev “Mochalov Aktyor – romantik” nomli degan kitobida aktyorni V. Karakalpakov ishlagan Meynal rolidagi portretini keltirib, uni P.S.Mochalovning haqiqatga mos keladigan o‘z portretlarining biri deb ko‘rsatib ketadi.

Shunday qilib Vladimir Karakalpakov ishlagan P.S Mochalovning «Косия будем» dramasi dagi Meynal rolidagi portreti aktyorning eng yaxshi portretlaridan biri hisoblanadi [6;81]. So‘nggi vaqtlardagi Mochalov haqidagi kitoblarda faqat shu tasvir beriladi, bu narsa Karakalpakovning rus san’atiga qilgan xizmatlarining bir qancha yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Hozirgi mavjud ma’lumotlarga ko‘ra Vladimir Karakalpakov haqida birinchi bo‘lib va to‘liq ma’lumot keltirgan inson Nikalay Xardjievdir, deb keltiradi 1954-yili chiqargan “Rassomning taqdiri” degan Pavel Fedotovga bag‘ishlangan kitobida.

1827-yildan 1830-yilgacha kadetlar kursining rasm darsidan o‘qituvchisi, kollejiskoy registrator, chuqurlashtirilgan qoraqalpoq, ot yoqali, qiyiq ko‘zli Vladimir Gregorevich Karakalpakov bo‘ldi deb to‘q etishini aytgan. Xardjievning aytishicha Vladimir Karakalpakov korpusga o‘qituvchi bo‘lib joylashganda eng past cho‘qqi edi — kollej registratori degan cho‘qqi olgan. Karakalpakov Karl Bryullodan 3 yosh kichik bo‘lgan[7;21]. 1799-yili tug‘ilgani ma’lum, demak Vladimir Grigorevich Karakalpakov 1802-yilda tug‘ilgan. 11 yoshida badiiy akademiya ga qabul qilingan, 21 yoshida uni bitirmay haydab yuborgan. 28 yoshida o‘qituvchilikni tashlab Moskva teatriga o‘rgatuvchi (Smotritele lamp) bo‘lib ishga kirgan. Iste’dodi oldida bosh ekkan mashhur artist P. S. Mochalovdan atigi 2 yosh kichik bo‘lgan. V. Karakalpakov bo‘sh vaqtlarida aktyorlarning suratini chizgan, ba’zida K.P. Mochalovdan uning oldida suratga olib o‘tirgan. «Советская Каракалпакия» gazetasida[8] Karakalpakovning Karl

Bryullov bilan 1835-yili Moskvada teatrdagi uchrashganligi haqida I.V.Nasyukinning A.S.Pushkinga yozgan xati keltirilgan edi.

Yozuvchi Nikolay Xadjiev o'sha uchrashuvni bunday yakunlaydi: Karl Bryullovning eski tanishidek ko'rganligidan ko'ngli ko'tarilganini Karakalpakov teatr direktori, yozuvchi Zagotskiyga borib — Bryullov keldi u stulda o'tiribdi — deb ovozinig boricha baqirdi. O'sha kuni o'rtoqlari bechora Karaqalpakovni traktorda ovqatlantiradi, uni mashhur rassomning tanishi sifatida hurmat qiladi. Viktor Shkolovskiy rassom Fedetov haqida povesta degan kitobini 1960-yili yangi nashrida Karl Bryullovning og'zini Karakalpakov boshining bahosi bilan sotib oldi (saqlab qoldi) degan so'zlarni yozadi.

XIX asrning 50-yillarida Moskvadagi I. Mali teatrida ishlagan artistlar orasida Karaqalpakov degan familiyani uchramiz. N.G. Zografning "Малий театре второй половине XIX века" nomli kitobida 50-yillari Mali teatrida ishlagan artistlar M.C. Shepkin, F.N. Usachev, D.T. Lenskiy, V.C.Y. Jivokin, P.K. Sadovskiy va boshqalarning qatorida 1853-yili, 1862-yillari P.V. Vostokov (Karakalpakov) degan artist keltiriladi.[9;24] Buning Vladimir Grigorevichning o'g'li Prov yoki Pavel Vladimirovich Karakalpakov ekanligi so'zsiz. Qoraqalpoqlarning yaqin odamlarini rassom Fedotovning ham, artist P. S. Mochalovning ham ismi Pavel. Ularning hurmatiga Vladimir Karaqalpakov bolasining ismini Pavel qo'yishi mumkin, Vostokov degan taxallusini o'ylab topgan.

1872-1873-yillardagi mavsumida Mali teatrida qo'yilgan «бойства на улица мира» degan dramani Fransuz tiliga Vostokova (E. E. Nazarova) tarjima qilgan. Bu Vladimir Qoraqalpoqovning kelini bo'lishi mumkin.

I.V. Vostokov (qoraqalpoq) faqat aktyor emas, shu bilan birga bir necha vodevillarning muallifi va Fransuz tilidan ruschaga ko'p drama asarlarining tarjimoni bo'lgan.[10;566-569]

I.V. Vostokov (Karakalpakov) 1857-yili 31-iyulda bo'lgan spektaklda Gogelning revizorida Xlestakovning rolini o'ynagan[11;61].

Shunday qilib Karakalpakovlar Qoraqalpoqdan chiqqan birinchi rassomlar, birinchi professional artistlar va dramaturglar bo'lgan. Qoraqalpog'istonda tasviriy san'at rivojida V. Karaqalpakovning o'rni o'ziga xos darajada yuqori. Uning xorijda olgan bilimlari, rassomlik mahorati qoraqalpoq xalqining tasviriy san'ati tarixida katta iz qoldirgan. Maqolada keltirilgan arxiv materiallari va adabiy manbalar orqali tasviriy san'atni tadqiq etish va kelgusida keng ko'lamli ilmiy ishlarni davom ettirish kerak. Demak, V. Karakalpakovning san'at merosi va uning yo'lini davom ettiruvchilar haqida ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохатлар қатий давом еттирамиз 6-жилд –Тошкент “Ўзбекистон нашриёти”, 2022
2. Ө.Бекбаулиев. Владимир Қарақалпақов. Роман. Нөкис. қарақалпақстан 1987 жыл 23 б.
3. Эмиўдэрья журналы 1961-жыл, №12, 108 -110 б.
4. Сборник материалов для истории императорской С-Петербургской Акад. Художеств за сто лет его существования Сдб 1864-1866. 51 б.
5. Сборник материалов для истории императорской С-Петербургской Акад. Художеств за сто лет его существования Сдб 1864-1866. 132 б.

6. Сборник материалов для истории императорской С-Петербургской Акад. Художеств за сто лет его существования Сдб 1864-1866. 168 б.
7. Ө.Бекбаулиев. Владимир Қарақалпақов. Роман. Нөкис. 1987 жыл 55 б.
8. П.С. Мочалов Заметки театре, письма стихи пьесы, Современники о Мочалове изд.АН СССР, Москва. 1953.
9. Ю. Динтрор «Мочалов –актёр- романтик» М 1961. стр 81.
10. Николай Харджиев «Судьба художника» СП 1954 Москва. Стр.19
11. Николай Харджиев «Судьба художника» СП 1954 Москва. Стр 21
12. Газета «Советская Каракалпакия», 15-июль, 1961 г.
13. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 24.
14. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 588.
15. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 566-569.
16. Н.Г Зограф «Малый театр второй паловины XIX века» Стр 61.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).